

TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021 - yil 1 iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar soni

(2021 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

107 295
116,2 %

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

102 652
116,6 %

YANGI


Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021 yilda)

7 786
136,2 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 - iyun holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha)

2021 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-may oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1 - iyun holatiga ko'r'a, birlikda)




*Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,2** foizga oshdi*




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,4 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan 18,9 foizga oshdi




Xususiy korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)


8




Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021-yilning 1 - iyun holatiga ko'ra 3,7 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 16,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 18 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 231 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga yoki 1,09 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning tumanlar kesimidagi soni


(2021 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)

11




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021 yil 1 iyun holatiga ko'ra 7,7 ming tani tashkil etib, ulardan 7,5 mingtaси yoki 96,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,9 mingtaga yoki 113,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 yilning yanvar-may oylarida 689 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)



**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**

(2021 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 344	708	636
Qozog'iston Respublikasi	722	296	426
Ozarbayjon Respublikasi	160	54	106
Ukraina Respublikasi	119	60	59
Qirg'iz Respublikasi	102	38	64
Tojikiston Respublikasi	91	38	53
Turkmaniston Respublikasi	58	23	35
Belarus Respublikasi	64	29	35
Armaniston Respublikasi	25	16	9
Moldova Respublikasi	17	5	12

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2021 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 17,8 %, Qozog'iston Respublikasi 7,8 %, Ozarbayjon Respublikasi 1,7 %, Qirg'iz Respublikasi 1,5 % va Tojikiston Respublikalari 1,5 % ga to'g'ri kelmoqda.

**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**

(2021 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)

14


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Toshkent shahri	7 518	3 026	4 492
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	243	84	159
Bektemir	169	95	74
Yunusobod	946	399	547
Mirzo Ulug'bek	966	405	561
Mirobod	1 296	410	886
Shayxontohur	513	243	270
Olmazor	394	207	187
Sirg'ali	263	128	135
Yakkasaroy	1 209	436	773
Yashnobod	590	259	331
Yangihayot	93	48	45
Chilonzor	836	312	524

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 296 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 17,2 %), Yakkasaroy – 1 209 ta (16,1 %) hamda Yunusobod tumanlarida 946 tani (12,6 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Uchtepa – 243 ta (3,2 %), Bektemir 169 ta (2,2 %) hamda Yangihayot 93 tani (1,3 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra, birlikda)

15



2021 - yil 1 - iyun holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (13,0 %), Chilonzor – (12,3 %), Mirzo Ulug'bek – (11,1 %), Olmazor – (10,2 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (9,1 %), Yakkasaroy – (8,7 %), Mirobod – (8,4 %), Yashnobod – (8,3 %), Sirg'ali – (4,9 %), Bektemir – (2,3 %) hamda Yangihayot tumanlarida (1,9 %) tashkil etgan.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021 - yil yanvar-may oylarida, birlikda)

2021 yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (13,5 %), Yunusobod – (11,2 %), Mirzo Ulug'bek – (11,6 %), Olmazor – (10,1 %), Shayxontohur – (9,4 %), Uchtepa – (8,7 %), Yashnobod – (8,5 %), Mirobod – (8,1 %), Yakkasaroy – (7,7 %), Sirg'ali – (6,2 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,6 %) tashkil etgan.





16



2021 - yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Yashnobod – (12,5 %), Sirg'ali – (12,0 %), Yunusobod – (11,7%), Mirzo Ulug'bek – (10,9 %), Uchtepa – (9,8 %), Olmazor – (9,2 %), Shayxontohur – (8,2 %), Yangihayot – (7,3 %), Chilonzor – (6,4 %), Yakkasaroy – (5,6 %), Mirobod – (4,3 %) hamda Bektemir tumanlarida (2,1 %) tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2021 - yilning yanvar-may oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnomaga tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MEROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A central search bar has 'Qidirish' (Search) and 'Qidirish' (Search) buttons. The left sidebar, titled 'RASMIY STATISTIKA', lists various reports such as 'Elon qilish taqimi', 'Metama'lumotlar', 'Makroko'satkichilar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', 'Investitsiyalar', 'Qurilish', and 'Tashqi iqtisodiy faoliyat'. The main content area features a search interface with fields for 'Rasmdag'i kodni kiriting' (Enter registration code) and 'Kodni yangilash uchun rasmga bosing' (Refresh), along with a 'Qidiruv' (Search) button.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

tel.: 71 203-88-31